

**“Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat
ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ–803, 28.11.2022 y.)
Prezident tomonidan imzolandi**

Ushbu qonun ko‘chmas mulkning **quyidagi turlariga** bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga nisbatan tatbiq etiladi:

- ◆ yer uchastkalariga;
- ◆ binolarga, inshootlarga, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlarga;
- ◆ ko‘p yillik dov-daraxtlarga;
- ◆ mulkiy majmua sifatidagi korxonaga.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan **quyidagi huquqlar** yoki **cheklovlar** davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim:

- ◆ mulk huquqi;
- ◆ doimiy egalik qilish huquqi;
- ◆ doimiy foydalanish huquqi;
- ◆ meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi;
- ◆ ijara huquqi;
- ◆ ikkilamchi ijara huquqi;
- ◆ xo‘jalik yuritish huquqi;
- ◆ operativ boshqarish huquqi;
- ◆ ko‘chmas mulkni ishonchli boshqarish huquqi;
- ◆ bepul foydalanish huquqi;
- ◆ renta;
- ◆ ipoteka;
- ◆ servitut;
- ◆ ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarga qo‘yilgan cheklovlar.

Binolarga, inshootlarga hamda qurilishi tugallanmagan obyektlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ushbu ko‘chmas mulk joylashgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmaguniga qadar **amalga oshirilmaydi**.

Ko‘chmas mulkning **kadastr yig‘majildini** shakllantirish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- ◆ yer uchastkalarining belgilanganligi (realizatsiya qilinganligi);
- ◆ binoning, inshootning **qurilganligi** va **foydalanishga topshirilganligi**;

◆belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida **qurilishi tugallanmagan** obyektning mavjudligi;

◆ko'chmas mulkning **bo'linganligi**;

◆ko'chmas mulkning **birlashtirilganligi**.

Davlat reyestri ko'chmas mulk, unga bo'lgan huquqlar, shuningdek huquq egalari to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron bazasi tarzidagi tizimlashtirilgan **ma'lumotlar to'plamidan** iboratdir.

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 3 oy o'tgach kuchga kiradi.